

MA'NAVY VA JISMONIY BARKAMOLLIK UYG'UNLIGI

Abduazimov Sobir Utkurovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
"Jismoniy tayyorgarlik va sport" kafedrasida boshlig'i

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson hayotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lgan ma'naviy va jismoniy tarbiyaning uyg'unligi hamda harbiy xizmatchilarning iroda, kuchlilik, vijdonlilik, qat'iyat kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni to'g'risida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR

jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviyat, qadriyat, millat, iroda, vijdon, harbiy xizmat, jangovar ruh.

ПОДХОДЯЩИЙ УМСТВЕННОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается сочетание духовного и физического воспитания, которое является очень важной частью жизни человека, и роль физического воспитания и спорта в развитии духовно-нравственных качеств военнослужащих, таких как воля, сила, совесть, решительность.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

физическое воспитание, спорт, духовные ценности, духовность, ценность, нация, воля, совесть, военная служба, боевой дух.

SUITABLE FOR MENTAL AND PHYSICAL DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article discusses the combination of spiritual and physical education, which is a very important part of human life and the role of physical education and sports in the development of the spiritual and moral qualities of military personnel, such as will, strength, conscience, determination.

KEY WORDS

physical education, sports, spiritual value, nation, will, conscience, military service, fighting spirit.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jahonda globallashuv va integratsiya¹ jarayonlari yanada tezlashgan bir davrda turli kuchlar tomonidan tinchlik va xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar ham kuchayib bormoqda. Endilikda bunday kuchlar xalqning ma'naviy boyliklariga, azaliy qadriyatlariga rahna solish orqali o'z maqsadlariga erishishni ko'zlamoqda. Bu esa xalqning ma'naviy qadriyatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yurtimizda ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy qadriyatlardan foydalanish, ularni rivojlantirishda oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, harbiy faoliyatda zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Jumladan, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi jarayonida jasur jangchi uchun zarur bo'ladigan jismoniy va kuch sifatlari bilan bir qatorda shaxs sifatida ularning ma'naviy tarbiyasi uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yo'nalishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida harbiy xizmatchilarda "halollik", "sharaf", "matonat", "iroda", "tinchlik", "hurmat" kabi ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish va yanada mustahkamlash zarurdir. Shu o'rinda ma'naviy qadriyatlar tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Forobiy, A.Beruniy, J.Rumiy, M.G'azzoliy, A.Avloniy, A.Sog'uniy va boshqa allomalar insonning ichki ruhiy qudrati hamda millat taraqqiyotida ma'naviy qadriyatlarning o'rniga alohida ahamiyat berganlar.

O'z davrida markazlashgan Movarounnahr mamlakatiga asos solgan buyuk sarkarda Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida jangchining axloqiy-jangovar xislatlari namunalarini ifodalab bergan. Uning "Mashqda qiyin bo'lsa, jangda oson bo'ladi" degan so'zlarining naqadar to'g'ri aytilganini o'z hayotiy faoliyati davomida isbotlab berganiga, tarix guvohidir.

¹ Integratsiya – (lot. integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish

Amir Temur jangchilarining jangovar ruhiga katta e'tibor bergan, qo'shinlari tayyorgarligi tizimida turli xil og'ir jismoniy mashqlar va uzoq safar yurish usullarini qo'llagan. Shuningdek, o'z qo'shinlarida axloqiy-ruhiy holatni ko'tarishda kurash tushish, ov qilish, ot choptirish, kamondan otish kabi musobaqalar va o'yinlarni harbiy-musiqiy dastalarning sumay, kamay, nog'ora, dovul kabi musiqiy asboblardan ertadan kechgacha jangga chorlagan gumbur-gumbur ovozlari va jangchilarning chaqiriqlari ostida o'tkazish usulidan foydalangan.

Ayrim hollarda ayiq, sher, yo'lbars, sirtlon ovi jangdagi holatdan mutlaqo farq qilmasdi. Har bir harbiy boshliq to'qay yoki cho'lda o'z harbiy qismi bilan yirtqichlar to'dasini o'rab olardi. Xuddi shu yerda o'rab olingan to'da qurshovga olinib, ularning hududiy maydoni doiraviy siquvga olinib, biror yirtqich chiqib ketishiga yo'l qo'yilmagan. Doira tobora toraytirilib, temir sovut, dubulg'alar kiyilib yirtqichlar bilan bahodirlarning yakkama-yakka yoki guruh-guruh olishuvi o'tkazilgan. Bahodirlarga o'zi g'olib chiqqan sher, ayiq, sirtlon mukofot qilib berilardi va bu mukofot jangchi uchun eng zo'r sovrin hisoblangan.[2]

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni" ekanligini aytib o'tgan.[3]

Qadriyat tushunchasi yuzasidan ham bir qator olimlar o'z tadqiqotlarini olib borib, qadriyatlarining mazmun-mohiyati, tasnifini yoritishga harakat qilib, o'z oldilariga quyilgan maqsadga muayyan ma'noda erishganlar.

Jumladan, olim X.Shayxova fikricha, "Qadriyat - voqeyilikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tinchlik, tenglik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida- yodgorliklar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi".[4]

A.Erkayev esa "Qadriyat-bu ijtimoiy baholar, me'yorlar va ideallarning umumiy atamasi va ob'ektivlashgan voqeyiligi: badiiy, ilmiy asar, obidalar yoxud udum, marosim, ahlok va x.k"-deb ta'riflaydi.[5]

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida jismoniy tarbiya va sportga quyidagi ta'rif berilgan: "jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi" hamda "sport — odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan, ularning

jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo'lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar" deyilgan [11].

Jismoniy tarbiya va sport insonga jismoniy jihatdan yangi imkoniyatlarni beradi. Shu nuqtai nazardan ma'naviy qadriyatlar hamda jismoniy tarbiya va sport o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish zarur hisoblanadi. Chunki, "Sport jismoniy go'zallikni xulqiy go'zallik va go'zal xatti-harakatlar vositasida ma'naviy go'zallikka aylantirishdir" [6].

O'z navbatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ilm-fan, ilmiy salohiyat bilan bog'liqligini ta'kidlab, "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda" degan edi [7].

Halqimizning qadriyatlari bevosita uning ma'naviyatida mujassamlashgan bo'lib, undagi tuyg'ularni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'zini muhim hisoblanadi.

Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport inson ma'naviyatini shakllantiruvchi ajralmas qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jismoniy tarbiya ijtimoiy voqelik sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan. [8]

NATIJALAR (PEZYJITATY / RESULTS).

Bizga ma'lumki ma'naviyatning asosiy vazifalaridan biri inson ruhini poklaydi. Bunda jismoniy tarbiya va sport ham inson tanasini chiniqtirish orqali tanada ruhning imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson ruhining barqarorligi milliy g'ururni ham shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qalb va ruh mutanosibligi uchun qalbning kengligi talab qilinadi. Qalb kengligi jismoniy tarbiya va sport orqali ham shakllanadi. Negaki, inson jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi natijasida u o'zida jismoniy qiynchiliklarni his qila boshlaydi. Qiynchilik va azobni o'z tanasidan o'tqazib, uni his qiladi. Bu esa inson qalbini chiniqishiga olib keladi. Natijada inson qalbining ulg'ayishiga yordam beradi.

Ko'plab olimlar tomonidan olingan sotsiologik tadqiqot natijalari, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish insonlarning ijtimoiy faolligiga, mehnat unumdorligiga, sog'liq va uzoq umr ko'rishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.


Insonda irodani shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish ushbu sifatning xususiyatlarini o'z tanasidan kechirish imkoniyatini beradi. Uning faqat ruhi emas balki tanasi ham ushbu sifatga chiniqishi irodaning to'liq shakllanganligidan dalolat beradi. Asosan, turmushning qiyin davrlarida inson irodasining mustahkamligi uning qiynchiliklarni yengishida asosiy omillardan biri bo'lish bilan birga, qolgan omillar va xususiyatlarni shakllantirishda ham asosiy yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, inson vijdonini uyg'otishda ham katta yordam beradi. Bunda bizga ma'lumki sport bilan shug'ullangan inson jismoniy jihatdan baquvvat bo'ladi. Uning baquvvatligi o'ziga ishonchni shakllantirish bilan birga adolatsizlikka qarshi kurashishga undaydi. Masalan, jismoniy zo'ravonlikni ko'rgach uni bartaraf etishga harakat qiladi. Adolatsizliklarga chiday olmaydi. Ularga qarshi kurashishda

uning jismoniy jihatdan yetukligi har qanday adolatsizlikka qarshi turishga yordam beradi.

Bu esa jismoniy tarbiya va sportning inson vijdonini uyg'otishdagi o'mini ko'rsatadi (1-rasm). Umuman olganda jismoniy tarbiya va sport boshqa omillar qatorida inson ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mashqlardan kutiladigan maqsad, hammadan oldinga intilish kuchini, aqlini, axloqini, aqliy va jismoniy tezkorligini, mehnatsevarligini va boshqa inson qadrini ulug'lovchi jihatlarini oshirishda sog'lom musobaqa muhitini tayyorlashdan iborat.



1-rasm. Inson ma'naviyatini boyitishda jismoniy tarbiya va sportning

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari insonni jismonan baquvvat qilish bilan birga, uning ruhini mustahkamlaydi, aqlini ravshan qiladi. Shu tariqa odamda nafsiga erk bermaslik fazilatini tarbiyalab, foydali ishlarga chorlaydi, noto'g'ri fikrlashdan saklaydi, salbiy ta'sirga berilmaslik uchun mustahkam ruhiy zamin yaratadi, ya'ni g'oyaviy jihatdan ham tarbiyalashda salmoqli o'rinni egallaydi.

Sport o'zining kommunikativ xususiyatlari tufayli xalqaro muloqotda allaqachon eng muhim joylardan birini egalladi. Sport tili tarjima qilishga muhtoj emas, u umuminsoniy mantiqqa asoslanganligi uchun tushunarli va yengil.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: ijtimoiy-psixologik, intellektual va jismoniy tarbiyasi.

Ijtimoiy-psixologik tarbiyaning mohiyati jismoniy tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirishga bo'lgan hayot falsafasini, e'tiqodni, unga nisbatan ehtiyoj sifatida yondashish munosabatini shakllantirishga

yo'naltirilgan.

Jismoniy tarbiya yo'nalishida ma'naviy qadriyatlar rivojlanishi, ommalashishi sport yo'nalishiga kelib mustahkamlanishiga olib keldi.

Jismoniy tarbiya va sportning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishiga quyidagilarni kiritamiz: ma'naviy-intellektual qadriyatlar, ma'naviy-faollikka yetaklovchi qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy pedagogik qadriyatlar, safarbar qiluvchi ma'naviy qadriyatlar.[9]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Ma'naviy qadriyatlar - "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy qadriyatlar "milliylik" tushunchasini ham o'z ma'nosida aks ettiradi. Alohida holda "milliy" tushuncha "millat" tushunchasi bilan bog'liq. "Millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etno- madaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, tip va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet asosida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir".

O'z o'rnida ma'naviyat - inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarni o'z ichiga oladi, deb ta'riflanadi.[10]

Ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Insonning insonligi ma'naviyat sohibi ekanligidir. Ma'naviyat insonga insoniy mazmun va mohiyat baxsh etadi. Odam farzandi ma'naviyat sohibi bo'lganligi, ya'ni onga, aql-idrok va tafakkurga, imon va e'tiqodga, odob-axloqqa, sharm-hayo va ornomus singari fazilatlariga ega bo'lgani uchun ham inson degan sharafli nomga sazovor.

Yuqoridagi fikrlarni tizimli ravishda umumlashtirib bizning fikrimizcha, ma'naviyat - insonning hayotga, tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatini belgilovchi ijtimoiy-ruhiy omil hamda insonning o'z ruhiy olami, istak, ideal dunyoqarash va salohiyatini ruyobga chiqarish hamda uni oqilona amalga oshirishning imkoniyat darajasidir.

Bizning fikrimizcha, qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, ayrim xalq, millat, elat yoki ijtimoiy guruhning o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan, o'z manfaat va maqsadlari yo'lida xizmat qiladigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunmoq lozim.

Shunday ekan, harbiy xizmatchilarimizda o'zbek xalqi uchun xos bo'lgan boy ma'naviy qadriyatlarimizni yanada mustahkamlash uchun jismoniy va ma'naviy tarbiya uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-intellektual qadriyatlarining mazmuni o'zida inson jismoniy faolligi, sport tayyorgarligi, chiniqish va sog'lom turmush tarzining asosi sifatida uning jismoniy salohiyatini rivojlantirish usul va vositalari to'g'risidagi bilimlarni namoyon etadi. Ya'ni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari shaxsda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ma'naviy-faollikka yetaklovchi qadriyatlarga jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi jarayonida erishiladigan faol faoliyatning eng yaxshi namunalarni, insonning harakat tayyorgarligining shaxsiy yutukdarini, uning real salohiyatini kiritish lozim.

Jismoniy tarbiya va sportning ma'naviy-axloqiy pedagogik qadriyatlarini shaxsda axloqiy tarbiyani, iroda, erk, adolat kabi qadriyatlarni shakllantirib boradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- ma'naviyat negizida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish harbiy xizmatchilarning ajdodlarga munosib davomchi bo'lishida, qadriyatlarini ardoqlashida jismoniy va ruhiy kuch birligi orqali yordam beradi. Qolaversa, ma'naviyat hamda jismoniy tarbiya va sportning uyg'unligi ezgu ishni bajarishda o'ziga bo'lgan ishonchni, mustahkam irodani shakllanishida, iymon-e'tiqodni mustahkamlanishida namoyon bo'ladi;

- ma'naviyat hamda jismoniy tarbiya va sportning asosiy maqsadining birligi, jismoniy tarbiya va sportning ma'naviyatni to'ldirishi, ya'ni keltirayotgan natijasi inson kamolotiga xizmat qilishi jismoniy tarbiya va sportda ham ma'naviyat mavjudligini ko'rsatadi. Aynan bunday omillar, ya'ni jismoniy tarbiya va sportning inson kamolotiga xizmat qilishi jismoniy tarbiya va sportning ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishdagi o'rni muhim ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

Kitoblar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli qarori.

2. J.Rahimov. Amir Temur. Adolat va qudrat timsoli. Ilmiy-tarixiy kitob. Toshkent-2017. b.24-98.

3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".- Toshkent: Ma'naviyat, 2008. b-176.

4. Shayxova X. Ma'naviyat-kamolot ko'zgusi.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. b-152.

5. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot.Toshkent:Ma'naviyat, 2009.b-480.

6. Abdulla Sher. Estetika (nafosat falsafasi) /- T: O'zbekiston, 2013. B-246.

7. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. b-592.

8. Гоношвили А.С. Методологические основы социологии спорта. - Санкт-Петербург: Издательство "Лема", 2017. - 52 с

9. Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта. М: Академия, 2001.

10. *Falsafa: ensiklopedik lug'at/O'zRFA, I Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. b-585.*

Vebsayt

11. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.